

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MULOQOT KO’NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA IJODIY TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

Ozodova Madina Hamza qizi,
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich doktaranti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.041>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarining muloqot ko‘nikmasini rivojlanirishda ijodiy topshiriqlardan foydalanish va uning hozirgi zamon bilan chambarchas bog‘liqligi haqida fikr yuritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini va muloqot ko‘nikmalarini rivojlanirishda turli xil ijodiy topshiriqlardan, rasmlli matnlardan, savol –javob, o‘yinli topshiriqlar va shu kabilar haqida fikr yuritilgan. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda o‘quvchilarni so‘z boyligini oshirib, muloqotga kirishganda uyalmay o‘z fikrini mustaqil va erkin bayon eta olishi uchun boshlang‘ich sinfdan harakat qilish lozim. Buning uchun o‘quvchilar bilan ko‘proq muloqot qilish va turli xil qiziqarli topshiriqlar o‘tkazish orqali ularning nutqini rivojlanirishga, so‘z boyligini oshirishga erishiladi. Bu esa kelajakda o‘quvchining qaysi kasb yoki hunar egallashidan qat’iy nazar nutqi ravon, muloqotga kirishimli bo‘lishini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar. Muloqot ko‘nikmasi, nutq o‘stirish, so‘z boyligi, ijodiy topshiriq, boshlang‘ich ta’lim, maktab, metod, suhbat.

USING CREATIVE TASKS IN DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRIMARY GRADES

Ozodova Madina Khamza qizi,
Bukhara State University 2nd stage doctoral student

Abstract: This article discusses the use of creative tasks in the development of communication skills of primary school students and its close connection with the present time. In the development of speech and communication skills of primary school students, various creative tasks, pictorial texts, question-and-answer, game tasks and so on were discussed. In today’s rapidly developing world, it is necessary to make efforts from the elementary school so that students can increase their vocabulary and express their opinion independently and freely without being shy when communicating. To do this, it is possible to develop their speech and increase their vocabulary by communicating more with students and conducting various interesting tasks. This ensures that the student’s speech will be fluent and communicative in the future, regardless of what profession or profession he will acquire.

Key words. Communication skills, speech development, vocabulary, creative task, primary education, school, method, conversation.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ ЗАДАЧ В РАЗВИТИИ КОММУНИКАЦИОННЫХ НАВЫКОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Озодова Мадина Хамза кизи,
Докторант Бухарского государственного университета, 2 ступень

Аннотация: В данной статье рассматривается использование творческих заданий в развитии коммуникативных навыков младших школьников и его тесная связь с современностью. В развитии речевых и коммуникативных навыков младших школьников обсуждались различные творческие задания, изобразительные тексты, вопросы-ответы, игровые задания и так далее. В современном быстро развивающемся мире необходимо уже с начальной школы прилагать усилия для того, чтобы учащиеся могли увеличивать свой словарный запас и выражать свое мнение самостоятельно и свободно, не стесняясь при общении. Для этого можно развивать их речь и увеличивать словарный запас, больше общаясь с учениками и выполняя различные интересные задания. Это гарантирует, что речь студента в дальнейшем будет беглой и коммуникативной, независимо от того, какую профессию или профессию он приобретет.

Ключевые слова. Коммуникативные навыки, развитие речи, словарный запас, творческая задача, начальное образование, школа, метод, беседа.

Kirish. Hozirgi paytda mamlakatimizda va xorijda muloqot muammosiga qiziqish ortib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilarning bir-birlari bilan qiladigan muloqoti katta ahamiyatga ega. Muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishida shaxsnинг shakllangan sifatlari, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Psixolog olim V.N. Myasishev muloqot masalasiga chuqur yondashgan, uni o‘rgangan. Boshqa olimlar muloqotni nutq kommunikatsiyasi bilan bog’lab o‘rgangan bo‘lsalar, V.N. Myasishev muloqotni jarayon sifatida o‘rgangan. Ya’ni shaxslarning bir-biriga muloqot orqali ta’sir ko’rsatishlarini, bir-birlarini idrok qilish obyekti sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha: «Shaxs turlicha munosabatlarda qarama-qarshi sifatlarni namoyon qilishi mumkin.»

Jumladan, shaxsda ijobjiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo‘lsa (xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, to‘g’ri so‘zlilik, vijdonlilik kabilalar) muloqot jarayoni yaxshi o‘tadi. Chunki shaxslar bir-birini to‘g’ri tushunishlari uchun, muloqot muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun ular samimiyl bo‘lishlari lozim. Samimiylilik insonning eng ajoyib fazilatlaridan biri bo‘lib, voqeа-hodisalarga oqilona munosabatda bo‘lish, turli ta’sirlarga berilmaslikdir.

Bolalar yoshlikdan avvalo oilada, so‘ngra ta’lim maskanlarida muloqotga o‘rgatib boriladi. Muloqotga o‘rgatishning usullaridan biri muloqot ko‘nikmasini mashg‘ulotlar tarzida shakllantirishdir. Bolani bog‘cha sharoitida tarbiyachi turli mashg‘ulotlar o‘tkazib muloqotga o‘rgatadi. Avval elementar o‘zini tutish, kattalarga qanday gapirish, salom berish, minnatdorchilik bildirish kabi usullar tarkib topadi. Maktab yoshi davrida va keyinchalik shaxs ijtimoiy-psixologik treninglar orqali muloqotga o‘rgatiladi.

Nutq bilan ishlash orqali ham muloqotga o‘rgatish mumkin. Masalan, ovozni baland chiqarib she’r o‘qish, hikoyani so‘zlab berish kabi topshiriqlar ham muloqotning shakllanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘yin faoliyati davomida muloqotga o‘rgatish oson kechadi.

Metod. Shaxs muloqotining shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasi muhim o‘rin egallaydi. Masalan, shaxsga kuchli ta’sir etadigan so‘zлarni qo‘llasangiz ham u qabul qilmasligi, sizning bergen ko‘rsatmalariningizga amal qilmasligi mumkin. Chunki u yoshligidan muomala madaniyatini egallashi kerak. Muloqotning shakllanishida maqsad to‘g’ri qo‘yilishi lozim. Muloqot ta’lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, mahallada, jamoada, guruhda. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo‘pol munosabatda bo‘lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofdagilar bilan nizolarga borishi mumkin. Har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil inson (shaxs)ni tarbiyalash uchun yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib voyaga yetkazish zarur. Demak, muloqot fikrlash bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi.

Buning uchun biz quyidagi metodlarni va topshiriqlarni tavsiya qilamiz.

“Muxbir”metodi. Bu metodning asosiy mohiyati shundaki har bir o‘quvchi o‘z fikrini qisman bo‘lsa ham bildira olishlari lozim bo‘ladi. har bir qatordan birtadan o‘quvchi muxbir rolini o‘ynaydi. Bu esa barchaga yangilik va motivatsiya beradi. Muxbir metodi darsdan lirik chekinish tarzda o‘quvchilar darsdan biroz zerikib qolgan paytda uyushtiriladi.

Ushbu metod orqali

1.Sinfda o‘zaro muhokama va fikrlar qarama-qarshiligini ta’milanadi.Bu juda yaxshi . Har bir o‘quvchining o‘z fikri bo‘ladi;

2. O‘quvchi fikrlash va o‘z mulohazalarini erkin bayon qilishni o‘rganadi;

3. Jamoat oldida nutq so‘zlash ko‘nikmasi shakllanadi.

4. O‘quvchida o‘zini va boshqalarni fikrini tinglash va hurmat qilish xislatlari shakllanadi.

Metodni qo‘llash uchun kerak bo‘ladigan vositalar: mikrafon shaklidagi biron buyuyoki qog‘oz va baxs uchun fan yuzasidan qiziqarli savol yoki mavzu. Dars davomida guruh sardorlari qo‘llariga mikrafon ushlab, jamoadoshlari javoblarini va ishtioklarini intervyu shaklida oladilar xoh yozma, xoh og‘zaki holarda va boshqa muxarrirga ya’ni ustozga topshiradi.Dars shu tartibda davom etadi. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini bayon etishga intiladi.

Muloqotga o‘rgatishda o‘yin va noo‘yin shakllarini qo‘sib olib borishning ahamiyati katta:

Darsga norasmiy muloqot elementlarini kiritish. Ayni paylda didaktik o‘yinlardan foydalanish. Ularda muloqot tashkilotchisi rolini muallim emas, o‘quvchilardan biri bajarishi.

E’tiborni javobning ijobjiy jihatlariga qaratish. O‘quvchilar o‘rtoqlarining javoblarini xolisona baholashga maxsus o‘rgatiladi, ayni paytda eng kichik tafsilot, detallargacha e’tiborni qaratib, o‘rtoqlarining javoblaridagi eng muvaffaqiyatli jihatlarini ajratib ko‘rsatishni o‘rganish. Kamchiliklarni qanday qilib yo‘qotish haqida bahslashish, kamchilikni bitta o‘quvchining o‘ziga aytish orqali ta’sir qilish.

Bolalar nutqining o'sishida ularning maktabda o'qishi katta rol o'ynaydi. Bola maktabgacha yoshda o'yamasdan gapiradi, maktabda esa u gapplashayotgan til o'qitiladigan va o'rganiladigan ilm bo'lib qoladi. Grammatikani o'qib o'rganish jarayonida bola nutqining fonetik jihatni to'g'ri bo'lib boradi, nutqning sintaksis tuzilishi takomillashadi. Maktabda o'qitilayotgan hamma fanlarni o'rganish jarayonida o'quvchi nutqining lug'ati boyiydi, so'zlarning mazmuni uning uchun chuqurlashadi va kengayadi. Bolalarning yozma nutqni egallashlari ular nutqining o'sishida muhim bosqich bo'ladi. Bola o'z fikrlarini yozma nutqda bayon qilishga harakat qiladi. O'quvchi o'qituvchining topshirig'iga binoan yozma ishlar bajarayotganda o'zining shu ishiga o'z fikrining qanday til bilan bayon qilinganiga qarab baho berilishini oldindan bilib turadi. O'quvchi maktabda berilgan topshiriqni tayyorlash vaqtida shu topshiriqni o'ziga-o'zi gapirib berishni mashq qilib turishi nutqining o'sishiga katta ta'sir qiladi. Bolalar nutqining o'sishida o'qituvchining nutqi katta rol o'ynaydi, chunki uning nutqi o'quvchilar uchun namuna hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchi o'z nutqini takomillashtirish ustida ishlashi kerak. Maktabda bolalar uchun eng avvalo faol ishlatiladigan so'zlarning miqdori oshadi. Yozma nutqni, o'qish va yozishni o'zlashtirish o'quvchi hayotida hosil qilingan malaka hisoblanadi.

Kichik mакtab yoshidagi bolalar tovushlarni bir-biriga qo'shish orqali so'z tuzish malakasini egallab olgach, ba'zida main mazmunini noto'g'ri tushunadilar. Unga o'quvchilarning so'z boyligining kamligi yoki asosiy fikrni ajrata bilmasligi sabab bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchi oldida bolalarda lug'at boyligini oshirish va ularni o'qigan narsalari yuzasidan mustaqil reja tuzishga barvaqtroq o'rgatish vazifasi turadi. Yozuv darslarida bola harf va so'zlarni yozishda katta qiyinchilikka duch keladi. Dastlab bola butun e'tiborini yozish texnikasiga va o'tirish qoidasiga rioya qilishga qaratadi. Avval bolaning yozma nutqi uning og'zaki nutqi orqali belgilanadi, ya'ni u so'zni qanday talaffuz etsa shunday yozadi. Bu davrda bola bilan ovoz chiqarib aytish bo'yicha muntazam mashqlar o'tkazish uning imlo qoidalari muvaffaqiyatli o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega. Yozma nutqda imo-ishora, ohangdan foydalanilmaydi. Shu bois bolalarning yozma nutqlari ularning og'zaki nutqiga qaraganda ancha bo'sh bo'ladi. Bolalar nutqi kattalar nutqi ta'sirida o'sadi. Shuning uchun pedagoglar bolalarga kichik mакtab yoshidan boshlab og'zaki va yozma nutqni o'stirish bilan birga nutq madaniyatini ham o'rgatib borishlari zarur. Albatta bu jarayonlar qiziqarli usullarda olib borilsa o'quvchi hecham zerikmaydi.

Muloaza va natijalar. Yoshlarni muloqot jarayonida mustaqil fikrini erkin ifodalash malakalarini va ularning tanqidiy fikrlashini shakllantirish psixolog-pedagoglar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, XXI asrda yashaydigan har bir insonning tanqidiy va ijodiy fikrlashi uchun avvalo muloqotga o'rgatish zarur. O'smirlarni muloqotga o'rgatish uchun ularga psixologik, pedagogik adabiyotlarni o'qishni tavsiya qilish, muloqot jarayonida yoshlar faoliyatini kuzatish, fikrlash doirasini aniqlash va shu jarayonda psixologik o'yinlar, mashqlar, treninglardan foydalanish muhimdir. Bolalar nutqi bevosita kattalar nutqi ta'sirida o'sadi. Shuning uchun o'qituvchi nutqi o'quvchilar nutqini o'stirishda namuna bo'lib xizmat qilishi kerak. Muloqot madaniyatini shakllantirish ta'lim jarayonida, sinfdan tashqari ishlarda ro'yobga chiqadi. Bunda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari badiiy asarni pedagogik tahlil qila olishda ilmiy-metodik yondashishi bosh masaladir. Badiiy asarni insoniy, axloqiy, estetik oziq manbai sifatida tahlil qilish nutq madaniyati bilan hamohangdir. Boshlang'ich ta'limda badiiy adabiyotdan o'quv-tarbiyaviy ishlarda to'g'ri foydalanishning samaradorligi o'qituvchining bilim saviyasiga, uning ixtisoslik bilim darajasiga va har bir asarni pedagogik tahlil qila olish mahoratiga bog'liq. O'qituvchining badiiy asarni pedagogik tahlil qila olish mahorati adabiyotning ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatidan to'g'ri foydalanishning shartidir. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning nutq faoliyatini rivojlantirish o'qituvchidan ijodiy yondashishni talab qiladi. Chunki o'qituvchi o'z o'quvchilarining nutq faoliyatida ularni kuzatadi, savol-javoblar o'tkazadi.

Xulosa va tavsiyalar. O'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish faqatgina boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtiribgina qolmay, balki jamiyat taraqqiyotida ma'naviy omil rolining oshib borishini taqozo etadi. Bugungi kunda badiiy adabiyot vositasida muloqot madaniyatini shakllantirish shaxs kamolotining ustivorligini ta'minlaydi. Shunday ekan, o'qituvchini ushbu ishga ilmiy-metodik jihatdan tayyorlash, unga ijodiy yondashish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, ularga mos mazmun va metodlar belgilashni taqozo etadi. Demak, o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish o'qituvchilarning pedagogik ijodkorligiga, ilmiy bilim va metodik malakalarni egallashiga, tajribasiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyot yosh avlodning nutqini rivojlantirishga va muloqot madaniyatini

o'stirishga katta imkon beradi. Undagi ijobiy va salbiy obrazlar o'quvchilar qalbida o'chmas iz qoldirishi natijasida ular mavzularning asl ma'nosini yaxshi tushunib, esda saqlab qoladilar. Chunki adabiyot kishiga ma'lumot berish bilan birga, o'quvchining nutq madaniyatini shakllantirishda, xulq va axloqini mustahkamlashda yordam beradi. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirishda badiiy adabiyotning muhim o'rni, nutq va muloqot madaniyatini shakllantirishdigi omillari ko'rsatilgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Doniyorov M. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutq madaniyati haqida mulohazalar. Архив Научных Публикаций JSPI. 2020 y.
2. Doniyorov M., Mamarahimova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy madaniyatini shakllantirishda innovatsion yondoshuvning ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI. 2020 y.
3. Hamzayevna, O.M.(2023). CREATIVE APPROACH IN DEVELOPING THE COMMUNICATION SKILLS OF PRIMARY CLASS GUARDS. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 55-59.
4. Mahkamov U., Tilabova N., Tilabova Sh. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma.-T.: ToshDTU, 2003-16b
5. Ozodova, M. H. (2024). SPEECH DEVELOPMENT OF STUDENTS IN MOTHER LANGUAGE CLASSES OF PRIMARY CLASS. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 3(1), 76-82.
6. Shodiyev Q. Nutq o'stirish uslubiyoti. Kasb hunar kollejlari uchun.-T.: O'qituvchi, 2002-78b